



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIGA TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 30-noyabr kuni amaliy tashrif bilan Dubay shahriga keldi.

Aeroportda oliy martabali mehmonni BAA energetika va infratuzilma vaziri Suxayl al-Mazriy kutib oldi.

1-dekabr kuni davlatimiz rahbari BMTning Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha konferensiyasida ishtirok etadi hamda

ushbu global sammit yalpi sessiyasida nutq so‘zlaydi.

Tadbir kun tartibidan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Hadli konvensiyasi asosiy qoidalarini amalga oshirish, bugungi ekologik tahdid va

xatarlarga qarshi kurashish, “yashil” taraqqiyot maqsad va vazifalarini ilgari surishda keng hamkorlik masalalari o‘rin olgan.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON SAYYORAMIZNI ASRAB-AVAYLASH, KELAJAK AVLODLARGA TALAFOTLARSIZ YETKAZISH TARAFDORI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 30-noyabr-2-dekabr kunlari Birlashgan Arab Amirliklariga tashrif buyuradi va Dubay shahrida BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi ishtirokchilarining 28-konferensiyasi (COP-28) doirasidagi Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish sohasidagi harakatlar bo‘yicha jahon sammitida ishtirok etadi.

COP28
UAE

Davomi 2-betda



FORUM

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA PARLAMENT VA FUQAROLIK JAMIYATI HAMKORLIGI

O‘zbekiston va jahon tajribasi



Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha II global forum bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalari a‘zolari, xorijiy mamlakatlar parlamentlari rahbarlari, parlamentlararo tashkilotlar, Yoshlar parlamentlari, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, ilmiy tadqiqot muassasalari ekspertlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda onlayn tarzda ishtirok etdi.

Forum avvalida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o‘qib eshittirdi.

Davomi 2-betda



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI



Mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkin. Bizga o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko‘proq zarur.

Prezident Shavkat MIRZIYOYEVning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqidan

O‘ZBEKISTONNING XALQARO TASHABBUSLARI mintaqada va dunyoda tinchlik, barqarorlikka da‘vat etadi

Globalashuv davrining g‘oyat muhim, shu bilan birga, o‘ta nozik ko‘rinishi shundaki, bu jarayonda mamlakatlar o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishga kuchli ehtiyoj sezadi. Bunda davlatlarning tashqi siyosati faollashishi talab etiladi. Eng muhimi, xoh tashqi, xoh ichki siyosat bo‘lsin, biror qaror qabul qilish yoki qandaydir tashabbusni ilgari surish xalqaro miqyosda aks sado berishi, hatto turli ziddiyatlarga olib kelishi ham hech gap emas. Fikrimizga dunyo uzra notinchlik qutqusi kezib yurgan shu kunlarda o‘nlab misollarni asos qilib keltirish mumkin.

Biz bejiz bu haqda gap boshlamadik. Bugungi dunyo tobora tahlilali tus olmoqda. Davlatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonchsizlik kayfiyati kuzatilayotgan sharoitda dunyoda tinchlikni saqlash, birgalikda rivojlanishga ehtiyoj ortib borayotgani ham ayon haqiqat. Ana shu istak va tabiiy ehtiyoj insoniyatni turli tahdid va fojialardan asrab qolishi chin qiyofa kasb etib borayotgan zamonimizda O‘zbekistonning dunyoviy va mintaqaviy tashabbuslari haqida to‘xtalishni joiz bildik.

Davomi 3-betda



GENDER TENGLIK

IMTIYOZ, IMKONIYAT, RAG‘BAT ertangi taraqqiyotning bugungi tamal toshi

— O‘qishga kirishim oson bo‘lmadi. Oliy ma‘lumot olish uchun 13 yil urindim. Shuncha yil omad kulib boqmasdi. Bu orada “Medtexnika Guliston” MCHJda kadrlar bilan ishlash bo‘limida faoliyat yuritdim. Soham bo‘yicha ancha tajriba orttirdim. Garchi ishimi yaxshi uddalab kelayotgan bo‘lsam-da, ko‘nglimning bir burchida oliy ma‘lumotli emasligim o‘kinchi turar, OTMga o‘qishga kirish yetib bo‘lmas orzudek edi. Shu bois, o‘z ustimda ishlashni kanda qilmadim.



Davomi 5-betda



8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

HAYOTIY QUDRAT RUHI

ortga qaytmas islohotlarning mustahkam poydevori

Hazrat mir Alisher Navoiy besh asr avval inson va uning qadr-qimmatini haqida dunyoning bino bo‘lmog‘idan asl muddao inson ekanligi haqida quyidagicha yozadi: Ganjing aro naqd farovon edi, Lek boridin g‘araz inson edi. Har qanday davlatning Konstitutsiyasi markazida inson va uning manfaatlarini turadi. Ya‘ni Asosiy qonunning pirovard maqsadi INSONga xizmat qilishdir.

Inson va uning manfaatlari tom ma‘noda oliy qadriyat darajasida bo‘lishida Konstitutsiya, huquq ustuvorligi ta‘minlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sohobqiron Amir Temur davlatni idora qilishda qonunlarning hayotiy kuchini quyidagicha izohlagan: “Yana tajribada ko‘rib bildimki, davlat agar dini oyin (tartib) asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi”.

O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI

Davomi 3-betda



O'ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOY FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH "NURONIY" JAMG'ARMASI FAOLLARINING BARCHA YURTDOSHLARIMIZGA MUROJAATI

Boshlanishi 1-betda

Hurmatti nuroniylar!

Siz hayotning og'ir sinovlarini boshdan kechirib, umrning donish-mand fasliga yetdingiz. Isrof qilingan har bir ne'matning badali hayotda achchiq oqibatlarini ko'rsatishini yaxshi bilasiz.

Sizlarning hayotiy tajribangiz, duo va tilaklaringiz xalqimiz uchun hamisha katta tayanch va suyanch bo'lib kelmoqda. Bugun har bir mahalla, har bir oilaga kirib, suvdan tejankorlik bilan foydalanish borasida tushuntirish-targ'ibot ishlari kuchaytiraylik!

Xalqimiz obihayotni azal-azaldan muqaddas hisoblab, uni asrab-avaylagan. "Suvdek serob bo'ling", "Suvdek aziz bo'ling", degan ezgu niyatlar shu ulug' qadriyat natijasida paydo bo'lgan. Ota-bobalarimizning bu ulug' qadriyatini yoshlarga tushuntirishda faol va tashabbuskor bo'laylik!

"Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejiz aytilmagan. Bolalarimiz, nevara-chevaralarimiz oilada har bir ishni bizdan ko'rib o'rganadi. Shunday ekan, **suv va boshqa ne'matlarni qadrlash, tejab ishlatish zarurligini o'lad, dasturxon atrofida farzandlarimizga tushuntiraylik!**

Qadrl mahalla faollari, aziz otanalar!

Unumdor va serhosil ekinzorlarimiz, bol to'la bog'larimizning gullab-yashnashida, hayotimiz farovonligida eng muhim omil bo'lgan suvning har bir qatrasini asrab-avaylash hayot davomiyligini ta'minlash bilan barobar!

Muqaddas dinimizda ham suv eng ulug' ne'mat ekan, uning isrof qilingan har bir tomchisi uchun hisob-kitob muqarrarligi eslatilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidagi 2 milliarddan ziyod aholi suv tanqisligidan azob chekmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, qariyb 1,5 milliard aholi toza ichimlik suvdan be-bahra qolmoqda.

Yurtimizda esa aholiga suv yetkazib berishda davlatimizning qanchadan-qancha mablag'i sarflanayotganini, qanchadan-qancha mutaxassislar bu yo'lda xizmat qilayotganini o'lad, maktabda va hatto bog'cha yoshidan boshlab yosh avlodga tushuntiraylik!

Shu bilan birga, hasharlar uyushtirib, **hududimizdan o'tgan ariqlar, suv yo'llari atrofini obodonlashtirishga hissa qo'shaylik.**

Hurmatli fermerlar, mirishkor bog'bonlar va dehqonlar!

Mamlakatimizda jami suvning **90 foizi** qishloq xo'jaligi sohasida ishlatiladi, **4 foizidan** kommunal maqsadlarda, qolgan qismidan sanoat va boshqa yo'nalishlarda foydalaniladi. Suv yo'qotishlarining eng katta qismi aynan qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi. Yurtimizdagi sug'orish tarmoqlarining yarmi betonlanmagan, ya'ni tuproq o'zanli ariq va kanallardan iborat bo'lgani sababli katta miqdorda suv yo'qotilmoqda.

Respublikamizdagi sug'oriladigan maydonlarning **60 foizidan** ortiq qismiga **1680 dan ziyod** nasos stansiyasi va **4 mingdan ortiq** sug'orish qudug'i orqali juda katta mablag' va sa'y-harakatlar evaziga suv yetkazib beriladi. Suv xo'jaligi sohasiga ajratilgan **10 trillion so'mning 63 foizi** nasos stansiyalarining elektr energiyasi xarajatlarga sarflanmoqda, ya'ni davlat byudjetidan ajratilayotgan katta mablag' va mashaqqatlar evaziga ekin dalalariga yetib boryapti. **Ushbu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, suv tekin emas, hatto arzon ham emas!**

Shunday qiyinchiliklar bilan yetkazib berilayotgan suv bilan tomorqalar va ekin dalalari ko'llatilib, zovurlarga oqizib qo'yilayotgan holatlarga duch kelganimizda ko'z yumib o'tib ketaverishimiz ona Vatanning gullab-yashnashi va rivojlanishiga befarqlik va katta gunoh ekanini xalqimiz ongiga singdiraylik!

Bugungi kunda mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etganlarni davlatimiz qo'llab-quvvatlab, subsidiyalarni ajratmoqda. Tejamkor texnologiyalarga o'tayotganlar soni yildan-yilga ko'payib boryapti. Ayniqsa, tomchilatib, yomg'irlatib, diskret usulida sug'orish, yerni lazer uskunasida tekislash ommalashmoqda. Tejovchi texnologiyalarni qo'llash orqali fermerlar, dehqonlar, klaster egalari nafaqat suvni tejayapti, hosildorlik oshishi hisobiga yaxshigina daromad ham ko'ryapti.

Usta dehqonlar yaxshi biladiki, tomchilatib sug'orish — dalaga emas, o'simlikka suv berish degani. Mablag' tejalandi. An'anaviy sug'orishda o'g'it suvda oqib, zovurlarda qamish o'sishini ko'paytirayotgan bo'lsa, tomchilatib sug'orishni joriy qilgan fermerlar aynan ekinlarga suv va o'g'itni bir xil yetkazib berish hisobiga bir necha barobar ortiqroq hosildorlikka erishmoqdalar.

Siz ham ilg'orlar safiga qo'shiling! Xalqimizda "Suv zar — suvchi zargar", degan ibora bejiz aytilmagan. Qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishda zargarona mahorat bilan suvdan unumli foydalaning! Tejamkorlikning zamonaviy usullaridan foydalanib, bir qatra suv behuda sarf bo'lishiga yo'l qo'ymang! Tejamkorlikda boshqalar-ga namuna bo'ling.

"Otang mirrob bo'lsa ham ariq'ingni chuqur qazgin", degan aqlgacha amal qilib, ishni kuz-qish mavsumida o'z hududingizdagi ichki ariqlarni tozalash va betonlashdan boshlang!

Aziz yoshlar!

Sizlar yangi O'zbekistonning buniyodkor kuchisiz! Xalqimiz ko'zlayotgan yuksak marralarga erishishda aql-zakovatingiz, g'ayrat-shijoatingiz, ona Vatanga bo'lgan sadoqatingiz beqiyosdir.

Prezidentimiz suv taqchilligi muammosiga to'xtalib, bu borada bilim eng muhim omil ekanini qayta-qayta ta'kidlamogda. Suv taqchilligining oldini olish, tabiiy resurslardan tejankor usullarda samarali foydalanish bo'yicha zamonaviy bilimlar asosida tashabbuskor bo'ling! Kelgusida mamlakatimizda suv tanqisligi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmaslik uchun bugundagi harakat qiling, har bir qatra suvni tejab ishlat! Bu borada tengdoshlaringiz orasida tashabbus ko'rsating!

Qadrl mahmurlar!

Har birimiz bir qatrasini tillodan ham qimmat suvni tejat ekanimiz, bu mamlakatimiz iqtisodiyotiga, xalqimiz farovonligiga, el-yurtimiz ravnaqiga, farzandlarimizning kelgusi baxtli-saodatli hayotiga qo'shayotgan eng xayrli ulushimiz bo'ladi. Suv tekin emasligini, obihayotni isrof qilish xalqimiz kelajagiga xiyonat qilish bilan barobar ekanini unutmaylik!

Suv hayot namoi ekan, har birimiz farzandlarimiz kelajagi oldida mas'ul ekanimizni yodda tutaylik! Suvning bebaho ne'mat ekanini barcha shahar va qishloqlarimiz, mahallalarimiz, o'quv yurtlarimizda yoshlar ongiga chuqur yetib borishi uchun tushuntirish va targ'ibot ishlarni bir lahzaga ham to'xtatmaylik! Qayta-qayta takrorlangan bo'lsa-da, bir narsani unutishga haqqimiz yo'q: suv — eng ulug' ne'mat. **Undan tejankorlik bilan foydalanish, har bir tomchisini asrab-avaylash bugungi avlodning kelajak oldidagi mas'uliyati va burchidir!**



FORUM

Boshlanishi 1-betda

Forumda qayd etilganidek, O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi, huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Global barqaror rivojlanish maqsad va vazifalari hamda ularning indikatori milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqib qayta ishlandi. Parlamentda milliy maqsad va vazifalarning amalga oshirilishini nazorat qilish komissiyasi tuzildi. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda "parlament — hukumat — fuqarolik jamiyati institutlari" konsepsiyasi yaratildi. Bu bilan BRMga erishishda manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmi shakllantirilib, sohada parlament va jamoatchilik nazorati o'rnatildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi rezolyutsiya

yasi hamda milliy maqsadlar doirasida olib borilayotgan islohotlarga alohida e'tibor qaratildi.

Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong videomurojaatida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha II global forum yuqori darajada tashkil etilgan uchun minnatdorlik bildirdi. Ko'rilayotgan masalalar, ulardan kelib chiqqan taklif va xulosalar parlament hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishini qayd etdi.

Anjuman ishi "2030-yilgi Global kun tartibini samarali amalga oshirishga ko'maklashishda parlament va parlamentlararo hamkorlikning roli", "BRMga erishish jarayonini tezlashtirishda gender masalalariga yo'naltirilgan va yoshlar siyosati" hamda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini amalga oshirishda parlament va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlik" mavzularidagi uchta sessiya doirasida tashkil etildi. Birinchi sessiyada ishtirokchilar 2030-yilgi kun tartibi

bini amalga oshirish, jumladan, O'zbekiston tashabbuslari va rivojlantirish istiqbollarini, ikkinchi sessiyada esa parlament jarayonlarida xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirishda milliy parlamentning rolini muhokama qilidilar.

Uchinchi sessiya kun tartibidan Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati hamkorligini yanada mustahkamlash hamda nodavlat notijorat tashkilotlarning ixtiyoriy milliy hisobotlar va muqobil ma'ruzalar tayyorlashdagi ishtiroki kabi masalalar joriy oldi.

Bundan tashqari, tadbir davomida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar tashabbusi bilan ilgari surilayotgan BMT Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish to'g'risidagi rezolyutsiyasi loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Forum yakuni bo'yicha Toshkent kom-myunikesi qabul qilindi.

So'z xalqaro forum ishtirokchilariga:

Ram AYER, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili:

— Bundan ikki yil oldin Samarqandda o'tkazilgan ilk forumda muhim tashabbuslar ilgari surilishi bilan bir qatorda o'tgan davrda ularni hayotga tatbiq etish, parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha sezilarli ishlarni amalga oshirildi.

Muhimi, parlamentlar BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro'yobga chiqarishda faollik ko'rsatayotir. Bugungi ikkinchi global forum ishtirokchilari o'z faoliyatini davomida amalga oshirayotgan ishlari haqida ma'lumot

berish bilan birga, o'zaro tajriba almashish imkoniga ega bo'ldi.

Ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, ayniqsa, inklyuziv ta'limga e'tibor, kambag'allikka barham berish bo'yicha muhim fikr-mulohazalar bildirildi. Bularni amalga oshirish odamlar manfaatiga xizmat qiladi. Mana shunday xayrli maqsadlarni biz ham qo'llab-quvvatlaymiz. Ta'lim rivojida nanotexnologiyalardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq.



Gulnora MA'RUFOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi:



— Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlardagi faolligi, ayniqsa, qarorlar qabul qilishdagi to'laqonli ishtiroki — jamiyat barqarorligi hamda islohotlar muvaffaqiyatining muhim omili. Shu nuqtayi nazaridan, yangi O'zbekistonni barpo etishda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yo'nalishdagi barcha islohotlarimiz Barqaror

rivojlanish maqsadlari bilan hamohang bo'lib, ularga erishishning 32 ta gender ko'rsatkichi qabul qilingan.

Avvalo, genderga oid huquqiy poydevor mustahkamlanib, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari hamda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishga oid 2 ta alohida qonun qabul qilindi. Shuningdek, Senat qarori bilan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinib, 60 dan ziyod maqsadli indikator belgilab olindi.

Bunday e'tibor va imkoniyatlar natijasida bugun O'zbekiston ayollari har jabhada o'z o'rni va ovozigaga ega bo'lib bormoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish bo'yicha alohida dastur qabul qilingani bu boradagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda. Ushbu dastur doirasida ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash va ilgari surish tizimi yaratildi. Bu boradagi ishlarning amaliy natijalarini raqamlar ham tasdiqlaydi. Agar 2017-yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 35 foizga yetdi.

BMTning O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarni kuchaytirish to'g'risidagi rezolyutsiyasida ham xotin-qizlarning qonun chiqaruvchi organlar ishida, parlament jarayonlarida to'liq, teng huquqli va ta'sirchan ishtirokiga ko'maklashish, gender tenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi anjuman ushbu yo'nalishda mavjud muammo va aniq takliflarni muhokama qilish, birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni muvofiqlashtirish uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi. O'zaro muloqotlarda jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish kabi masalalar xususida fikrlashdik. Bu borada o'rtaga tashlangan fikr-mulohazalar, maqbul hechimlar xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirish, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlashda katta natijalarga erishishimizga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTON SAYYORAMIZNI ASRAB-AVAYLASH, KELAJAK AVLODLARGA TALAFOTLARSIZ YETKAZISH TARAFDORI

BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi platformasining butun dunyo, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi va O'zbekiston uchun ahamiyati, shubhasiz, juda muhim. Dubayda bo'lib o'tadigan tadbirning ko'lami nafaqat ishtirokchilar soni (80 mingdan ortiq kishi), balki muhokama qilinayotgan muammolarning globalligi bilan ham belgilanadi.

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsad global iqlim o'zgarishi, uning oqibatlariga qarshi kurashish, Parij kelishuvi qabul qilingandan keyin erishilgan yutuqlarni baholash va sarhisob qilish masalalarini muhokama etishdan iborat.

Sammit dasturidan davlat va hukumat rahbarlari uchun yuqori darajadagi uchrashuvlar, oziq-ovqat, energetika, yoshlar va ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, suv, iqlimni moliyalashtirish va COP-28 ni amalga oshirishga bag'ishlangan tadbirlar hamda davra suhbatlari o'rin olgan.

Anjumanda 150 dan ortiq mamlakatdan davlat va hukumat rahbarlari, vazirlar darajasidagi delegatsiyalar, xalqaro tuzilmalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ekspertlar, ilmiy va jamoat doiralari vakillari ishtirok etishi rejalashtirilgan.

BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi 1992-yilda qabul qilingan bo'lib, u dunyoning deyarli barcha davlatlari qamrab olgan. Kioto protokoli va Parij kelishuvi BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi asoslari va rivojlanishi bo'yicha qabul qilingan hujjatlardir.

O'zbekiston 1993-yil 20-iyunda bu konvensiyaga qo'shilgan, 1999-yilda Kioto protokolini ratifikatsiya qilgan. 2017-yilda Parij bitimini imzolash orqali O'zbekiston, jumladan, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilgi darajadan 35 foiz kamaytirish bo'yicha asosiy majburiyatlarini zimmasiga oldi.

BMT hadli konvensiyasi ishtirokchisi sifatida O'zbekiston iqlim bo'yicha mintazam hisobotlar tayyorlaydi va konvensiya ko'tibiyatiga taqdim etadi. Shuningdek, milliy ma'rufa, ikki yillik hisobotlar, moslashish rejalari, milliy miqyosda belgilangan badallarni ishlab chiqadi va yangilaydi.

Ayni paytda iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekistonning so'nggi besh yilda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini aks ettiruvchi to'rtinchi milliy ma'ruzasini tayyorlash ishlari yakunlanmoqda.

Bugungi kunda dunyo iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillik yo'qolishi va sayyoramiz ifoslanishi oqibatlariga duch kelayotgan, Markaziy Osiyo mintaqasi esa global isish oqibatlarini tobora ko'proq his qilayotgan bir paytda O'zbekiston atrof-muhit, qishloq



va suv xo'jaligi sohasidagi siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqdi.

Xususan, O'zbekistonda ekologik muammolarni hal etish, bioxilma-xillikni saqlash va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha qator konseptual hujjatlar tasdiqlandi. 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiya, 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2028-yilgacha qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi, 2028-yilgacha biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi shular jumlasidandir. Umanan olganda,

Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan iqlimiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kuchayishining oldini olish maqsadida Orolbo'yidagi 1,8 million gektar maydonga cho'l o'simliklari urug'i va ko'chatlari ekilmoqda. 2030-yilgacha ushbu hududda 2,3 million gektar maydonni ko'kalamzorlashtirish rejalashtirilgan.

respublikada tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi 40 dan ortiq qonunni o'z ichiga olgan mustahkam normativ-huquqiy baza yaratilgan.

Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan iqlimiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kuchayishining oldini olish maqsadida Orolbo'yidagi 1,8 million gektar maydonga cho'l o'simliklari urug'i va ko'chatlari ekilmoqda. 2030-yilgacha ushbu hududda 2,3 million gektar maydonni ko'kalamzorlashtirish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, iqlim muammolari transchegaraviy xususiyatga ega ekanini to'g'ri anglagan O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasini iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish

va uning oqibatlariga moslashishda birlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni sezilarli darajada kuchaytiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining shu yil 14-sentabr kuni Dushanbe shahrida boshliq o'tgan beshinchi yillik maslahat uchrashuvidagi nutqida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mintaqaviy strategiyani qabul qilishni taklif etdi, bu esa iqlim barqarorligini ta'minlash va "yashil" rivojlanishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Iqlim dasturi boshqa xalqaro formatlar doirasida ham faol ravishda ilgari surilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida dekarbonizatsiya va "toza" texnologiyalarni joriy etish, "aqli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish va suvni tejash masalalarida vazifalarni muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidladi. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitida ushbu tuzilma doirasida ekologiya masalalari bo'yicha yuqori darajali platforma yaratish va uning birinchi anjumanini 2024-yil Samarqand iqlim forumi doirasida tashkil etish taklifini bildirdi.

O'zbekiston yetakchisi, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ekologiya sohasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish tashabbusini ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Orol

fojiasi oqibatlarini va vaziyatni yumshatish bo'yicha mutasaddi idoralar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga alohida to'xtalib, BMTning Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimini ta'is etish va "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etishni taklif qildi.

Prezidentimiz BMTning Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 13-17-noyabr kunlari Samarqandda ilk bor o'tkazilgan 21-sessiyasi ishtirokchilariga yo'llagan murojaatnomasida O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri va ular keltirib chiqaradigan ijtimoiy, ekologik muammolarning og'ir oqibatlarini to'liq his qilishini yana bir bor qayd etdi. Shu nuqtayi nazaridan, davlatimiz rahbari xalqaro ekspertlar hamjamiyatini O'zbekistonning qum va chang bo'ronlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasini qabul qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

Bir so'z bilan aytganda, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi platformasining butun dunyo, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi va O'zbekiston uchun ahamiyati, shubhasiz, juda muhim. Dubayda bo'lib o'tadigan tadbirning ko'lami nafaqat ishtirokchilar soni (80 mingdan ortiq kishi), balki muhokama qilinayotgan muammolarning globalligi bilan ham belgilanadi.

O'zbekiston Prezidentining mazkur tadbirda ishtirok etishi mamlakatimizning "yashil" o'sish va rivojlanishga sodiqligini, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirishga tayyorligini hamda Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi maqsadlariga erishish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq bajarishini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Dunyo" AA

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

O‘ZBEKISTONNING
XALQARO TASHABBUSLARI
mintaqada va dunyoda
tinchlik, barqarorlikka da’vat etadi

“Davlat xizmatchilari va ularning oila a’zolari jamoatchilikning doimiy e’tiborida bo’lishiga guvoh bo’lganmiz. Xalqimizda “Tarbiya – oiladan boshlanadi”, degan naql bejiz aytilmagan.

HAYOTIY QUDRAT RUHI

ortga qaytmas islohotlarning
mustahkam poydevori**Sardorbek YUSUPOV,**
yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Joriy yil mamlakatimiz tarixida xalqimiz birinchi marta referendum asosida “Bu — mening Konstitutsiyam”, degan g’urur bilan yangilangan Bosh qonuni qabul qildi. Bu, o’z navbatida, xalqimizning ortga qaytmas tus olgan keng ko’lamli islohotlarga katta ishonch bilan qaratganini namoyish etdi. Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish hamda xalqimiz orzu-umidlarini amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Aholining Konstitutsiyaga doir muhim bilimlarni egallashi, normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalar mazmun-mohiyatini anglab yetishi, talqin qila olishi hamda ulardan to’g’ri foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lishi har qachongidan ko’ra, bugun yanada muhim ahamiyatga egadir. Shu bois, xalqimiz irodasi asosida yangilangan Konstitutsiyaning tub mohiyatini targ’ib etishga qaratilgan ishlarni yangi pog’onaga olib chiqishda innovatsion usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Prezidentimizning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish bo’yicha yaqinda qabul qilingan farmoyishi bu borada muhim dasturlamal bo’lmoqda. Farmoyishda Konstitutsiya kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g’oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” degan bosh g’oyani o’zida mujassam etgan



nunimiz normalarining davlat organlari faoliyatida muhim qoidaga aylanishiga erishishdir, desak mubolag’a bo’lmaydi. Yurtimizda davlat xizmatiga ishga qabul qilish va kadrlar siyosati masalasida yangi tizim joriy etilganini barchamiz ko’rib turibmiz. Lekin davlat xizmatchilarini tanlashda Konstitutsiyaga oid fundamental bilimlarni bilish bo’yicha talab qo’yilishi maqsadga muvofiq. Konstitutsiya bilan mustahkamlangan inson manfaatlari oliy qadriyat sanalishi hamda xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani aynan davlat xizmatchilari faoliyatida, o’zini tutishida, xatti-harakatida o’z aksini topishi kerak.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi tarbiya va muhit bilan bevosita bog’liqligidan kelib chiqib, aytish mumkinki, avvalo, mansabdor shaxslar qonunga so’zsiz rioya etishi va bu borada namuna bo’lishi lozim. Buning uchun davlat xizmatchilari ongu shuuriga Konstitutsiyada inson eng mo’tabar mavqega ko’tarilgani, davlat organlari hamda mansabdor shaxslar o’z



tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish ko’zda tutilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O’zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egaligi belgilangan davlat xizmatchilarini tanlash, ularni rivojlantirish va lavozim pillapoyalarida yuqorilab borishining yangi konstitutsiyaviy makonini vujudga keltirdi. Ya’ni mazkur konstitutsiyaviy norma davlat xizmatiga tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo’yicha tanlash kabi ilatlarga butunlay barham berib, zamonaviy bilim ega, salohiyatli kadrlarning ochiq va shaffof tanlov tizimi orqali davlat xizmatiga kirishiga zamin yaratdi. Zotan, adolati tanlov asosida lavozimni egalagan va halol mehnati bilan xalqqa xizmat qiladigan davlat xizmatchilari korpusi mamlakat va jamiyatning rivojlanish kursini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Davlat xizmatiga kirishda barcha fuqarolarga teng shart-sharoitlar yaratish orqali kadrlarni mahalliylik, urug’-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo’yicha tanlash bekor bo’ldi. Shuningdek, kadrlarning bilim va salohiyatini zamonaviy ustulblar asosida baholash yo’li bilan eng munosiblarini davlat xizmatiga jalb qilish imkoniyati yaratildi.

Davlat xizmatini tizimiga salohiyatli kadrlarni keng jalb qilish orqali davlat boshqaruvi samaradorligi va barqarorligini ta’minlashga sharoit yaratildi. Alohida ta’kidlash kerakki, Konstitutsiyaning hayotimizdagi o’rni va ahamiyatini yanada oshirish, uning hayotiy kuchini yuksaltirishda konstitutsionalizm va huquq ustuvorligi sohasida boshlangan ishlarni izchil davom ettirish kutilgan samarani beradi.

Konstitutsiyaga davlat fuqarolik xizmatchilari to’g’risidagi qoidalar kiritilishi mamlakatimizda professional xodimlar faoliyatiga e’tibor yuqori darajada ekanini bildiradi.

Galdagi ustuvor vazifa Asosiy qo

Qutbitdin BURXONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo’mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Avvalo, ta’kidlash kerakki, davlatlarning suveren tengligi va hududiy yaxlitligi prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillariga asoslangan tinchlikparvar tashqi siyosat yuritish yangi O’zbekiston milliy taraqqiyot yo’lining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Bu keyingi yillarda mamlakatimizda qator nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida o’tgan anjumanlar va davlat rahbarlari bilan uchrashuvlarda ilgari surilgan tashabbuslar va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan qizg’in qo’llab-quvvatlanayotganida yaqqol ko’zga tashlanadi. O’zbekistonning ko’p qirrali diplomatiyasi hamda xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan bildirayotgan takliflari shular jumlasidan-dir.

Bu jarayonda nafaqat O’zbekistonda tinchlik muhiti hukmron bo’lishi, balki umumiy xavf-xatar va tahdidlarga vaqtida va birgalikda javob qaytarish, davlatlararo mustahkam do’slik va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, global iqlim o’zgarishiga qarshi choralar ko’rish kabi masalalar ham o’rtaga tashlanayapti.

Xususan, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida ilgari surgan tashabbuslari asosida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi yo’lga qo’yildi. Toshkentda Afg’oniston bo’yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi. BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta’minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlarini qo’llab-quvvatlashga doir hamda “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” deb nomlangan rezolyutsiyalari qabul qilindi. BMT shafeligida Orolbo’yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo’yicha ko’p tomonlama trust jam’armasiga asos solindi.

O’zbekiston tomonidan Orolbo’yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish bo’yicha bildirilgan taklif asosida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi qabul qilinishi xalqaro darajada ilgari surilayotgan tashabbuslarning amaliy natijasi bo’ldi. Shuningdek, O’zbekiston 2020-yilda ilk bor MDH raisligini qabul qildi.

Yurtimizda kechayotgan jiddiy modernizatsiya va islohotlar jarayoni SHHT doirasidagi faoliyatida ham yangi davrni boshlab berdi. O’zbekiston bir necha bor SHHTga raislik qilgan. Ammo tuzilmaning 2022-yilda Samarqandda bo’lib o’tgan sammiti dunyo miqyosida shiddatli jarayonlar kechayotgan o’ziga xos tarixiy evrilish pallasiga to’g’ri kelgani bilan ahamiyatli bo’ldi.

O’zbekiston SHHTga raislik qilishdek mas’uliyatli vazifani zimmasiga olgach, asosiy e’tiborni hamkorlikning yangi uqlarini ochish va har bir ishtirokchi mamlakatning foydalanilmagan rezervlarini ishga solish orqali tashkilotni jadal rivojlantirish strategiyasiga qaratdi. Bu borada O’zbekiston tomonidan bildirilgan takliflar-da nafaqat tashkilotga a’zo davlatlar uchun manfaatli jihatlari, shuningdek, qo’shni Afg’onistonda ham tinchlik, osoyishtalik va barqaror iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari ustuvor bo’lishi inobatga olindi.

Prezidentimiz o’z nutqida bu borada quyidagi fikrlarni bildirdi: “Shuni ta’kidlashni istardimki, afg’on xalqi yaxshi qo’shniqlik yordamimizga har qachongidan ham ko’proq muhtojdir. Biz o’tmishdagi xatolarni takrorlamasligimiz va Afg’onistonni uning muammolari bilan yolg’iz qoldirmasligimiz lozim”.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish strategiyasi va tashabbuslar sabab bugun O’zbekistonda qaratilgan nigoh oldingildan multaqo farqlanadi. Bu, o’z navbatida, dunyo xalqlari va davlatlar o’rtasida do’slik, qardoshlik rishtalari mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda. Buni birgina O’zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga to’laqonli a’zo bo’lishida ham ko’rishimiz mumkin.

O’zbekiston TDTga shunchaki a’zo bo’lmadi. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkilotga yangi nom va o’zga ruhi kirdi. Prezidentimiz Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashining



joriy yilda Qozog’istonda o’tgan majlisida ham ko’p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirishga qaratilgan qator takliflarni ilgari surdi.

Xususan, tashkilot doirasida o’zaro hurmat, ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash, birgalikda turli to’siqlarni samarali yengib o’tishni bosh maqsad qilib belgilash, turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o’tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan “Turkiy dunyo xariyasi”ni ishlab chiqish taklif etildi.

Prezidentimizning turkiy xalqlar oilasi birligini mustahkamlash, turkiy mamlakatlar manfaatlari va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo’shayotgan ana shunday ulkan hisssasi alohida e’tirof etilib, “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan taqdirlangan barchamizni nihoyatda ruhlantirdi.

Xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlarga to’xtalar ekanimiz, bu borada joriy yilda iqtisodiy hamkorlik tashkilotining yurtimizda ilk marotaba o’tkazilgan 16-sammiti ham ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbari mazkur tashkilot sammitlarida muntazam ishtirok etib, umuminsoniy rivojlanishga xizmat qiladigan ko’pgina takliflar bildirmoqda. O’n oltinchi sammitdagi nutqida ham qator muhim tashabbus va fikrlarni bildirdi. Xususan, sammit umumiy taraqqiyot yo’lida ko’p tomonlama hamkorlikni kengaytirishga qat’iy intilishning yaqqol dalili ekanini ta’kidladi. O’z navbatida, o’tgan vaqt davomida nafaqat mamlakatlar o’rtasida erishilgan ijobiy natijalar, shuningdek, hali amalga oshirilishi zarur bo’lgan masalalarga to’xtaldi va ularning yechimi sifatida yangi takliflarni ilgari surdi.



Xususan, IHT doirasidagi hamkorlikka yangi sur’at bag’ishlash maqsadida “Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035” konseptual hujjatini ishlab chiqish, unda o’zaro savdoni rag’batlantirish, transport-kommunikatsiyaviy o’zaro bog’liqlikni kuchaytirish, sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, energetika xavfsizligini ta’minlash, iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish, turizm va madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish kabi asosiy yo’nalishlarga e’tibor qaratish lozim ekani ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, tovar va xizmatlar savdosini yengillashtirish, texnik va notarif to’siqlarni bartaraf etish, bojxona, fitosanitariya va veterinariya tartib-qoidalarini raqamlashtirish, elektron savdoni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan Savdoni soddalashtirish to’g’risidagi bitimni qabul qilishga chaqirdi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, bu chora-tadbirlar orqali 2035-yilga borib, o’zaro savdo hajmini kamida ikki barobar ko’paytirish mumkin.

O’zbekiston o’tgan vaqt davomida xalqaro moliya institutlari va savdo tashkilotlari — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg’armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Jahon savdo tashkiloti va boshqalar bilan hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratdi va hozir ham ushbu harakatlar jadal davom etmoqda. Shu o’rinda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik tiklangani muhim voqea bo’ldi. Buning natijasida mamlakatda qator ijtimoiy loyihalarni ham moliyalashtirish imkoniyati ta’minlandi.

Italiya Prezidenti Serjo Mattarellaning O’zbekistonga tashrifi ham ushbu yildagi muhim siyosiy voqealardan biri bo’ldi. Tashrif doirasida ikki tomonlama strategik sheriklikni va ustuvor yo’nalishlardagi ko’p qirrali munosabatlarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Serjo Mattarella ham mamlakatimizdagi ortga qaytmas islohotlarni qat’iy qo’llab-quvvatlashini alohida ta’kidladi hamda yurtimizning Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash va integratsiyalashuvni kuchaytirish borasidagi sa’y-harakatlarini yuksak baholadi.



Jadal hamda ortga qaytmas tus olgan bu kabi islohotlar dunyoning rivojlangan davlatlari e’tiborida bo’lib, o’zaro aloqalarning yangi bosqichga chiqishiga poydevor bo’layotgani quvonarlidir. Natijada O’zbekistonning Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerika, Kavkaz, Janubi-sharqiy Osiyo, arab davlatlari, Hind va Tinch okeani mintaqalari mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalari tobora rivojlanmoqda. Prezidentimiz joriy yilda ham qator davlat rahbarlari bilan uchrashib, ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, yangi-yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib oldi. Fransiya shunday davlatlardan biri bo’ldi.

Fransiya Prezidentining oxirgi 30 yilda ilk marotaba yurtimizga tashrif buyurishi mamlakatimizning jahon sahnidagi obro’-e’tibori ortganiga yana bir ishora bo’ldi. Prezident Emmanuel Makronning

Prezidentimiz ozarbayjonlik hamkasbi Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 23-24-noyabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo’lgani va BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida ishtirok etgani ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mamlakatlarimiz qanday og’ir xavf-xatarlarga duch kelayotganini juda yaxshi his qilib turibmiz. Zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish mintaqaviy hamkorligimizni yanada kuchaytirishni, bir-birimizni har tomonlama qo’llab-quvvatlashni taqozo etayotganiga e’tibor qaratgan davlatimiz rahbari yettita asosiy yo’nalishda taklif va mulohazalarini bildiradi.

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda ESKATO ekspertlari bilan birgalikda “SPEKA — 2030” taraqqiyot konsepsiyasini, Mintaqaviy savdoni rag’batlantirish bo’yicha qo’shma harakatlar rejasini ishlab chiqish, SPEKAning maqsadli jamg’armasini tashkil etishni tezlashtirish va kelgusi yilning o’zida uning amaliy ishini yo’lga qo’yish, Transkaspiy multimodal yo’lga bo’yicha ma’lumot va hujjatlar almashish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan “yo’l xaritasi”ni hayotga to’liq tatbiq etish, oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta’minlash bo’yicha yuqori darajadagi maxsus ishchi guruhni tuzish va uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Samarqandda o’tkazish, SPEKAning keng ko’lamli yangi konseptual hujjatini — ko’p tomonlama “yashil strategiya”sini qabul qilish, ishlalarni xotin-qizlarning faol tashabbuslarini va aniq rejaralarini doimiy va tizimli rag’batlantirish maqsadida SPEKA tadbirkor ayollari kengashini tuzish kabi taklif va tashabbuslar shular jumlasidandir.

Shu o’rinda alohida ta’kidlash joizki, yaqinda UNESCOning Bosh Assambleyasi sessiyasini ilk bor Markaziy Osiyoda — qadimiy Samarqand shahrida 2025-yilda o’tkazish bo’yicha tarixiy qaror qabul qilindi. Bu quvonchli xabar barchamizda g’urur-iftixor tuyg’ularini uyg’otdi.

Bu qaror o’z-o’zidan yoki tasodifiy qabul qilingan emas. Bunda tarixiy haqiqatlar va bugungi islohotlarimiz ruhi mujassamdur. Negaki, milliy taraqqiyot yo’lidagi islohotlar va Prezidentimiz ilgari surayotgan xalqaro tashabbuslar hamda ularning hayotga faol tatbiq etilayotgani yangi O’zbekistonda uchin yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda.

Darhaqiqat, bugun diyorimizda kechayotgan islohotlar, o’zgarishlar har qanday martabali mehmonni o’ziga rom etmay qo’ymaydi. Ayniqsa, zamonaviylik tarixiy xotiralarimiz bilan uyg’un holda aks ettirilayotgan tashanga sazovor. Ichki va tashqi siyosatimizdagi bu kabi faollik esa O’zbekiston uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda.



Feruza JO'RAYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Xoh tashqi, xoh ichki bozor bo'lsin, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mavsumiy emas, yil davomida muttasil yetkazib berishni talab qiladi. Eshik qoqib kelgan qorli-qirovli kunlarda esa ta'minot zanjirining uzluksizligi yanada muhim. Bunday sharoitda ekinlarga harorat, yorug'lik va namlik bilan bog'liq sun'iy muhit yaratadigan inshoot — issiqxonalarining oziq-ovqat yetishtirishda ahamiyati katta. Xususan, mavsumdan tashqari davrlarda ham hosil olish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladigan issiqxonalar istalgan meva-sabzavotni yetishtirish imkonini yaratadi.

Aholini sifatli va kafolatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, qolaversa, eksport qilishda ham issiqxona xo'jaliklari muhim o'rin tutadi. Bugun oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, fermer va dehqonlarimiz oldidagi muammolarni hal qilib, ularga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani bejiz emas, albatta.

— Yurtimizda qariyb 3 ming 300 ta fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan 5 ming 500 gektardan ziyod maydonda issiqxonalar tashkil qilingan, — deydi Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi bo'lim boshlig'i Shavkat Azizov. — Joriy yilning o'tgan davri mobaynida ular tomonidan 300 ming tonna mahsulot yetishtirilib, 90 ming tonnasi eksport qilindi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida tabiiy gazda ishlaydigan issiqxonalarini ko'mirga o'tkazish belgilangan. Qaror ijrosi doirasida bugungi kunda 200 ga yaqin issiqxona ko'mir yoqilg'isiga o'tkazildi.

Bugun yilning istalgan vaqtida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini savdo rastalaridan topishga o'rganib qoldik. Seryog'in, sovuq kunlarda ham mahalliy bozorlarni meva-sabzavot bilan to'ldirib, chet elga eksport qilishdek yumush ortida mirishkorlarning hisssasi katta. Aholi xonadonlarida issiqxonalar tashkil etish orqali ta'minlanayotgan bunday to'kinlik nafaqat ehtiyojimizni qondirishi, balki iqtisodiy samaradorlikka olib kelishi bilan ham ahamiyatlidir.

Hosilning cho'g'i baland

Joriy yil boshida Olot tumanida paxta va g'alladan qisqartirilgan hamda aholi yashash joylariga yaqin ekin yerlaridan 1 ming 179 gektar yer maydoni aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berilgan edi. Ayni kunlarda 30 dan ortiq fermer xo'jaligi bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligida faoliyat yuritib, elimiz dasturxonini to'kinligiga munosib hissa qo'shmoqda.

Mansur Husanovning dehqonchilikka qiziqishi yuqori, ammo issiqxona tashkil etish uchun zarur mablag'i yo'q edi. Shunday keza mas'ullar maslahati va tavsiyasi



Oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, fermer va dehqonlarimiz oldidagi muammolarni hal qilib, ularga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi ekinlarini ko'paytirish, har faslni pishiqchilik mavsumiga aylantirishning ahamiyati katta. Dehqonchilik juda tez foyda keltiradigan yo'nalish. Qolaversa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar zahmatkashlar og'irini yengil qilib, ularga yangidan-yangi imkoniyatlar tuhfa qilmoqda.

bilan bankdan imtiyozli kredit olib, 4 sotixli issiqxona tashkil etdi. Avvaliga ikkilanish, kutilgan hosilni oloimasam, kredit mablag'ini qanday qaytaraman, degan qo'rquv bilan



ish boshlagan zahmatkashning mehnati bir yilda yaxshigina samara berdi.

— Issiqxonada sarxil meva-sabzavot yetishtirayotganlarni ko'rsam, havasim kelardi, — deydi Mansur Husanov. — Qishloqda odamlarning asosiy daromadi yerdan. Shu

bois, uning har qarichidan samarali foydalanishga harakat qilamiz. Ro'zg'orimiz kam-ko'stini shu issiqxonadan to'ldiryapmiz. Sabzavotlarni ekishdan oldin yerga ishlov

berib, mahalliy o'g'it bilan to'yintirdik, zarur agroteknik tadbirlarni amalga oshirdik. Shunga yarasha hosilimiz mo'l. Bu yil ham yaxshigina daromad olishni mo'ljallab turibmiz. Hali oldinda xarajatlari, yaxshi kunlarimiz ko'p, qolaversa, yangi mashina olish, uy-joylarni ta'mirlash niyatidamiz. Hosilning cho'g'i baland bo'lgani uchun katta xarajatlardan havotirga tushmayapmiz. Kreditni ham o'z vaqtida qaytaryapman.

Mahsulotga Yevropa bozorlarida ham talab yuqori

Surxondaryo yilning barcha faslida ham sarxil meva-sabzavot yetishtirish uchun qulay sharoitga ega hudud. Havosi mo'tadil, tuprog'i unumdor vohada ham mirishkorlar issiqxona barpo etib, mo'may daromad ol-yapti. Jarqo'rg'onlik tadbirkor bir gektarlik issiqxonasida qalampirning eksportbop navini yetishtirmoqda.

— Issiqxonamiz joylashgan hudud bundan uch yil avval cho'l edi, — deydi tadbirkor Asadbek Abdullayev. — Bugun esa mo'l hosil beradigan ajoyib issiqxonaga aylandi. Yetishtirilgan bulg'or qalampiri yaxshi tosh bosadi. Dastlabki terimda

300 kilogramm hosil yig'ib oldik. Ikkinchi terimning hosili bundan ham ko'p bo'ladi. Umuman olganda, yanvar oyigacha 10 tonnadan oshiq mahsulot olib, mahalliy va qo'shni davlatlar bozoriga yetkazib berishni mo'ljallaganmiz. Bahorgi bulg'or qalampiridan 15 tonna hosil olgan edik. Eksportbop nav ekanmiz. Turli salatlarda tayyorlashga mo'ljallangan bu mahsulotga Yevropa bozorlarida talab katta.

Darvoqe, issiqxonaga qalampirning yangi navi chet eldan olib kelilib, sinov tariqasida ekinlgan edi. Mirishkorlarning mehnati sabab ekin mahalliy sharoitga moslashib, kutilganidan ham yaxshi natija bermoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bir gektarli issiqxonada qalampir yetishtirish uchun 25 million sarflab, 20 tonna hosil olish mumkin. Bir tupi bir yarim kilogrammgacha hosil beradigan mazkur nav xorij bozorlarida qimmat baholanadigan mahsulotlar sirasiga kiradi.

Ma'lumot o'mida aytish joiz, mazkur tumanda 14 gektar maydonda issiqxonalar barpo etilgan, sitrus mevali daraxtlar, sabzavot va poliz ekinlari parvarish qilinmoqda. Joriy yilda 7 ming tonnaga yaqin meva-sabzavot mahsulotlari xorijiy davlatlarga eksport qilinishi rejalashtirilgan.

2023-yil 1-noyabrdan boshlab, issiqxona xo'jaliklariga ko'mir qozonini xarid qilish xarajatlarining 20 foizini Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligining Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'i hisobidan qoplab berish tartibi yo'lga qo'yilgan. Albatta, bu kabi imtiyozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turi va hajmi ko'payishiga munosib hissa qo'shadi. Qolaversa, soha vakillariga rag'bat va ko'mak bo'ladi.

— Issiqxona xo'jaliklarida sardaromad yangi ekin turlarini yetishtirish hamda hosildorlik va daromadni oshirish maqsadida xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizi ham ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplab beriladi, — deydi Shavkat Azizov. — Bunda yuqori malakali agronomlar "yashil reyest"ini yuritish hamda rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib borish tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Hozir energiya sarfini kamaytiradigan yangi tipdagi issiqxonalarini o'rnatish, ularda hosil yetishtirish yo'ycha

fermer va dehqon xo'jaliklariga tavsiyalar berish borasida ish olib boryapmiz.

Yangi usul qulayligi

Energiya sarfini kamaytirish mazkur resursning tejalishi, shuningdek, tannarx pasayishiga ham xizmat qiladi. Ayni kunlarda tajriba tariqasida kigizli issiqxonalar tashkil qilinmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, issiqxonalarini kigiz bilan yopish hisobiga qorli-qirovli kunlarda ham +10 darajagacha bo'lgan haroratni ushlab turish imkoniyati yaratiladi. Bunday haroratda 10 sotix issiqxona uchun 1 oyda sarf etiladigan 7,5 tonna ko'mir 1,9 tonnaga, mavsumda 11,5 tonnaga iqtisod qilinadi. Shuningdek, kigizdan to'g'ri foydalanilsa, yaxshi saqlansa, uni 5 yilgacha ishlatish mumkin. Bu har yili issiqxonalarini qayta barpo etishga ketadigan xarajatlarni ham tejaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, tejaladigan mana shu mablag' har bir gektar uchun 118 million so'mni tashkil etadi. Mutasaddilar issiqxona xo'jaliklarining kigizga talabidan kelib chiqib, 590 gektar maydonga shunday matoni yetkazib berish uchun zarur choralar ko'rmqda.

Yangi tipdagi issiqxonalarining afzallik tomoni shundaki, ularni isitishga katta mablag' talab etilmaydi. Sintetik qoplama hisobiga qishda issiqlikni tutib beradi, yozda esa issiqxonada salqinlikni saqlab mahsulot yetishtirishga qulay muhit yaratiladi. Uning ikki tomoni avtomatik tarzda ochiladi va shamolatib turish mumkin bo'ladi. Ushbu tipdagi issiqxonalarda qulupnay, ko'kat, golubika (mevali buta), sparja, artishok kabi sovuqqa chidamli va yuqori daromadli ekinlari yetishtirish mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, fermer va dehqonlarimiz oldidagi muammolarni hal qilib, ularga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi ekinlarini ko'paytirish, har faslni pishiqchilik mavsumiga aylantirishning ahamiyati katta. Dehqonchilik juda tez foyda keltiradigan yo'nalish. Qolaversa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar zahmatkashlar og'irini yengil qilib, ularga yangidan-yangi imkoniyatlar tuhfa qilmoqda.

BIR MAHALLA — BIR MAHSULOT

QISHDA HAM HARAKATDAN TO'XTAMAYDIGAN ODAMLAR

Rishton tumanidagi "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'inida kuzgi sholg'om, turp, sabzi, lavlagi kabi sabzavot mahsulotlarini yig'ib-terib olish ishlari poyoniga yetdi. Endilikda ularni saralash, qadoqlash, saqlash, ichki va tashqi bozorga yo'naltirish bilan bog'liq ishlar amalga oshirilmoqda. Mahsulotning bozori chaqqon. Bir kilogramm turp va sholg'om ulgurji narxda 2-3 ming so'mdan sotilmoqda. O'n sotix yerdan o'rta hisobda 15-16 tonnaga yaqin hosil yig'ilgani hisobga olinsa, daromad cho'g'ini chamalash qiyin emas.

Mahalla mirishkorlari tomonidan yetishtirilayotgan sarxil sabzavotlar yur-timiz bozorlaridan tashqari Rossiya, Qozog'iston, Qirg'izistonga ham eksport qilinmoqda. O'tgan dehqonchilik yilida bu yo'nalishda 7 ming tonnadan ortiq mahsulot sotildi.

Rishton ertaki va kuzgi sabzavot mahsulotlari yetishtirish borasida ilg'or hududlardan biriga aylangan. Bugun mahalla xonadonlarida bo'lgan kishining nigohi saralanib, qadoqlab qo'yilgan sabzavot mahsulotlariga tushadi. Aytishlaricha, ko'hna qishloq odamlari avvallari ham bu yo'nalishda mehnat qilgan, izlangan. Lekin ming mashaqqat bilan yetishtirilgan hosil uchun erkin bozor yo'q edi. Mahsulotlarni ichki bozorda sotish bilan kifoyalanilgan. Hosildorlik, manfaatdorlik salmog'i ham shunga yarasha bo'lgan.

Keyingi yillarda agrar sohani isloh qilish va bozor talablariga moslashtirish, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor tufayli dehqon va tomorqachi-

lar hayot tarzi o'zgardi. Tomorqadan bir emas, 2-3 marta hosil olish, bug'doydan bo'shagan ekin maydonlarida takroriy ekin ekish borasidagi tashabbuslar quloch yoydi.

— Dunyo bozorida saxovatli zaminimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlarga talab yuqori, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Jaloliddin Mirzakarimov. — Ayni kunda 76,4 gektar aholi tomorqasi va fermer xo'jaliklarida 600 gektar bug'doydan bo'shagan maydonda kuzgi sabzavot yetishtirilmoqda. Har yili ichki va tashqi bozorga umumiy miqdorda 30 ming tonnadan ortiq sabzavot yetkazib beriladi. Qolaversa, mahallamiz jinoyatchilik va ishsizlikdan xoli hududga aylandi. Joriy yilning o'zida 92 nafar migrant, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligi ta'minlandi.

Gulshoda Oxunova ishsizligi bois, "Ayollar daftari"da turadi. To'rt sotixdan ortiq tomorqadan samarali foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelayotgandi. Mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan



Mahalla mirishkorlari tomonidan yetishtirilayotgan sarxil sabzavotlar yurtimiz bozorlaridan tashqari Rossiya, Qozog'iston, Qirg'izistonga ham eksport qilinmoqda. O'tgan dehqonchilik yilida bu yo'nalishda 7 ming tonnadan ortiq mahsulot sotildi.

xonadon tomorqasiga 33 million so'm imtiyozli kredit hisobiga 3,5 sotix issiqxona qurib berildi, tomchilatib sug'orish tizimlari o'rnatildi. Erta ko'klamda boshlangan xayrli tashabbus oila uchun ayni muddao bo'ldi — Gulshoda "Ayollar daftari"dan chiqdi.

— Ertaki bodringdan 25 million so'mdan ortiq daromad oldik, — deydi tomorqadagi kuzgi yumushlar bilan andarmon xonadon

bekasi. — Kuzgi hosil salmog'i ham yaxshi bo'ldi, ko'kat yetishtirib sotdik. Ro'zg'ordan orttirib, mol-qo'y qildik. Ayni kunda ko'klam ekinlari hozirligini ko'ryapmiz. Mahalliy o'g'it jamg'arish, yer yumshatish, chilla suvga qondirish mavsumning muhim amallaridan. Oilamizdagi tinchlik-totuvlik, fayzu baraka ana shu mehnat va izlanishlarimiz samarasi. Bunday ibratli ishlarni mahalladagi har

bir xonadonda ko'rish mumkin. Sohibkorliklar qish mavsumida ham harakattan to'xtagani yo'q. Sabzavot ekinlaridan bo'shagan maydonlar, issiqxonalarda to'qsonbosti usulida sarxil sabzavotlar parvarishlanaypti.

— Joriy yilda tomorqachilik va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida umumiy qiymati 400 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit berildi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Qahhorjon Hakimov. — "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida Konstitutsiya ko'chasi uzumchilar maskaniga aylandi. Bu yerda 181 million so'mlik imtiyozli kredit hisobiga uzunligi 700 metr bo'lgan ko'chaga temir ishkomlar tiklanib, uzum ko'chatlari ekildi. Endilikda 46 oila hamjihatlikda uzum yetishtiryapti. Dastlabki natijalar quvonarli. Bu yilgi hosildan har bir oila o'rtacha 11 million so'mdan qo'shimcha daromad oldi.

Keyingi yillarda paxta va g'alladan qisqargan past hosilli ekin maydonlari ijtimoiy himoyaga muhtoj, "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga Kiritilgan hamda ishsiz aholi qatlamiga bo'lib berilib, 15 ta dehqon xo'jaligi tashkil etildi. Buning hisobiga sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmi oshdi, sifati yaxshilandi.

Ilhomjon Bekmirzayev 15 sotix yerda dehqon xo'jaligi faoliyatini yo'lga qo'yib, ko'pgga ibrat bo'lmoqda. Ayni kunda uchinchi hosil — sholg'om yig'ishtirib olindi.

— Umumdor yerlarda oila a'zolarimiz bilan mehnat qilib, kam bo'lganimiz yo'q, — deydi Ilhomjon hosil cho'g'idan mam-

nun holda. — Toppagan daromadimiz hisobiga to'y qilib, kelin tushirdik. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy daromad salmog'i 60 million so'mdan oshdi. Bizga har jihatdan qulay sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib bergan Prezidentimizdan minnatdormiz.

Mahallada "Qayrag'och sara mevalari" oilaviy korxonasi tashabbusi bilan sig'imi 1,5 ming tonnali muzlatkich qurildi. Endilikda plastmassa qutilar va qop ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilyapti. Yangi loyiha bir vaqtning o'zida 150 dan ortiq yoshni ish bilan ta'minlaydi. Bu yerda sabzavot mahsulotlari yetishtirish yo'nalishida klaster faoliyatini yo'lga qo'yish borasida ish olib borilmoqda. Natijada sarxil mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishda yangi imkoniyat eshiklari ochiladi.

— Joriy mavsumda 60 gektar yerda kuzgi sabzavot mahsulotlari yetishtirdik, — deydi oilaviy korxona rahbari Rustamjon Toshmatov. — Kuz barakali kelib, gektarlar hosildorligi yuqori bo'ldi. Bundan tashqari, tomorqa yer egalari, fermer va dehqon xo'jaliklari bilan o'zaro kelishuv asosida mahsulot xarid qilish, saralash, qadoqlash, saqlash yo'nalishida ish olib boramiz. Bu yilgi mavsumda ichki bozordan tashqari, xorijga 10 ming tonnaga yaqin mahsulot eksport qilishni ko'zlab turibmiz.

Izlanish, hamjihatlik bo'lgan joyda farovonlik, obodlik an'analari quloch yoymoqda. Shu yilning o'zida mahalla hududida 11 kilometr toza ichimlik suv tarmog'i tortildi, 5 kilometr ichki yo'l asfaltlandi, 2 ta yangi transformator o'rnatildi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



GENDER TENGLIK



Dunyoda chuqur iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi kunda, qanchalik qiyin bo‘lmasin, zarur mablag‘ va imkoniyatlarni topib amalga oshirayotgan bunday sa’y-harakatlarimiz, albatta, o‘z natijasini beradi. Oliygoohlarda tahsil olayotgan xotin-qizlarimiz orasidan ilm-fan, siyosat va jamoat arboblari, mashhur madaniyat va san’at, sport namoyandalari yetishib chiqadi, deb ishonaman”.

Boshlanishi 1-betda

Besh yillik ish stajiga ega xotin-qizlarga oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berilayotganini eshitib, ko‘nglimda umid uyg‘ondi. Zora men ham o‘qisam, degan o‘yda imtihonga tayyorgarlik ko‘ra boshladim. Nihoyat, talabalik baxti nasib etdi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyanomasi asosida Toshkent davlat yuridik universitetiga o‘qishga qabul qilindim. O‘sha hayajonli va quvonchli kunda davlatimiz rahbariga maktub yo‘lladim. Unda baxtiyorligimni, biz, xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar uchun minnatdor ekanimni bayon etdim. 13 yillik orzum ushlagan bu kun hayotimni fayzga to‘ldirdi, — deydi Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi Nilufar Abdullaeva.

Imtiyoz — imkoniyat — rag‘bat. Bundan

10 yildan so‘ng ushlagan orzu

Opa-singillarimizning bilim va salohiyatini yuksaltirish, orzu-umidini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi tashabbuslar yurtimizning eng chekka hududlarigacha yetib bordi. Imkon va imtiyoz ko‘plab qalblarga ma‘rifat yog‘dusini ulashdi. Joriy yilda tavsiyanoma olish uchun ehtiyojmand oilalardan bo‘lgan 50 ming 668 xotin-qizning arizasi belgilangan muddatda xotin-qizlar.uz elektron platformasi orqali qabul qilindi. Ishchi guruh mazkur arizalarni ko‘rib chiqib, 38 ming 702 talabgorga tavsiyanoma taqdim etdi.

— Ayni paytda “Yangi O‘zbekiston” universitetida 1-kursda tahsil olayman,



IMTIYOZ, IMKONIYAT, RAG‘BAT

ertangi taraqqiyotning bugungi tamal toshi

birgina Nilufar emas, yurtimizdagi yuzlab ayollar bahramand bo‘lmoqda. Bugun ma‘rifat istagan ayollarga zarur sharoit taqdim etilayotir. Opa-singillarimiz jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun bor imkoniyat ishga solinmoqda.

Davlatimiz rahbari joriy yil Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda bu boradagi ishlar xususida to‘xtalarkan, jumladan, bunday dedi:

“Agar bundan 6 yil avval oliygoohlarda 110 ming xotin-qiz taqsim qilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda bu raqam qariyb 5 barobar ko‘payib, 500 ming nafarni tashkil etmoqda. Shu tariqa bugungi kunda oliy ta‘lim olayotgan talabalar orasida qizlarimizning ulushi 50 foizga yetgani tariximizda misli ko‘rilmagan natijadir.

Yangi tartibga muvofiq, magistraturada o‘qiyotgan 10 mingdan ortiq talaba qiz uchun 68 milliard so‘mdan ziyod kontrakt pullari davlat tomonidan to‘lab berildi. 65 mingdan ko‘proq talaba xotin-qizga 727 milliard so‘mga yaqin foizsiz ta‘lim krediti ajratildi.

Ehtiyojmand oilalarda yashayotgan qariyb 2 ming qiz, shuningdek, mutaxassislik bo‘yicha besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan 500 nafardan ortiq xotin-qiz oliygoohlarga alohida kvota asosida o‘qishga qabul qilindi.

Dunyoda chuqur iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi kunda, qanchalik qiyin bo‘lmasin, zarur mablag‘ va imkoniyatlarni topib amalga oshirayotgan bunday sa’y-harakatlarimiz, albatta, o‘z natijasini beradi. Oliygoohlarda tahsil olayotgan xotin-qizlarimiz orasidan ilm-fan, siyosat va jamoat arboblari, mashhur madaniyat va san’at, sport namoyandalari yetishib chiqadi, deb ishonaman”.

Tasavvur qiling, 6 yil avval oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni bugun 5 barobar ko‘paydi. Bu ayni paytda 500 ming ayol-qiz yashaydigan oilada ma‘rifat chirog‘i yongani, kamida shuncha farzand bilimli onadan saboq, tarbiya oladi, demakdir. Salohiyatli onalar bilan birga bilimli jamiyat sari dadil odimlardan darakdir bu. O‘qish shartnoma puli to‘lab berilayotgani bugun moddiy imkoniyati cheklangan, ammo orzusi olamjahon oilalarga chin ma‘noda ko‘mak bo‘layotir. Alohida kvotalar berilayotgani ehtiyojmand oilalar, kasbini sevsda, oliy ma‘lumot

— deydi Ruxshona Baymanova. — Otam vafot etgan, onam dardmand bo‘lgani bois, mehnat qila olmaydi. Akam va men talabamiz. Oilamiz “Ijtimoiy himoya reyestri”ga kiritilgan. Bu yil Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyanomasi berilgani hamda talaba bo‘lganim hayotimdagi eng unutilmas voqea.

Prezidentimizning “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yillik mehnat stajiga ega, lekin oliy ma‘lumoti bo‘lmagan 500 xotin-qiz har yili Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyanomalariga asosan, davlat OTMlariga test sinovi natijalariga muvofiq kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilangan. Ushbu imtiyoz ham

ming 664 nafariga tavsiyanoma berildi. Shundan test natijalariga ko‘ra, 507 xotin-qiz oliy ta‘lim muassasalariga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi.

Joriy yilda ham mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yillik mehnat stajiga ega, lekin oliy ma‘lumoti bo‘lmagan, o‘rta maxsus yoki professional ta‘lim muassasalarini tamomlagan 12 ming 563 talabgorning arizasi tavsiyanoma olish uchun doimiy yashash yoki vaqtincha ro‘yxatda turgan joyidagi tuman (shahar) ishchi guruhlariga taqdim etildi. Arizalarning belgilangan talablarga muvofiqliqi o‘rganilib, xotin-qizlar.uz elektron platformasiga kiritildi. Tuman (shahar) ishchi guruhlarining o‘rganishi natijasida 11 ming 992 xotin-qizga tavsiyanoma berildi.

— Kollejni tamomlaganimdan so‘ng oliy ta‘lim olishga imkoniyatim bo‘lmadi. Chir-

gogika instituti talabasi. Bundan to‘rt yil avval u birinchi marta OTMga hujjat topshirgan va o‘qishga kira olmagandi. Keyin yashash joyiga yaqin zavodga ishga kirdi. Oliy ma‘lumot olish orzusi armonga aylangan Maqsuda bor e‘tiborini mehnatga qaratdi. Ba‘zan zavodda kuniga 12 soatlab ishlagan paytlari bo‘ldi. Ammo oliy ma‘lumoti bo‘lish istagi qizni bir zum bo‘lsa-da, tark etmadi. U ishlash barobarida OTMga kirishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

— Bir necha yil o‘qishga topshirib talabalikka qabul qilinmasam-da, umidimni uzmadim, — deydi Maqsuda Asorova. — Amin bo‘ldimki, fan asoslarini chuqur o‘zlashtirgan, tinmay o‘qish va o‘rganishi bilan shug‘ullangan, albatta, o‘z maqsadiga erishadi. Nihoyat, bu yil tavsiyanoma asosida Jizzax davlat pedagogika institutiga o‘qishga kirganim hayotimda tub bulinish yasadi. O‘qishni tamomlagach, o‘quvchilarga ona tili va adabiyotdan dars beraman. Ular qalbiga yaxshilik, mehr, ilm olish yo‘lida chekinmaslik fazilatini singdiraman.

Egizak farzandlari o‘qishga tavsiya etilgan oila

Toshkentlik Sanjar Yusupov tarix fani o‘qituvchisi. Joriy yilda Sanjar akaning uch egizak qizi nufuzli universitetlar talabasi bo‘ldi. Fotimaning Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga, Zahro va Zuhraning O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiga o‘qishga kirgani kutilmagan baxt edi. Oila boshlig‘i qizlar kelgusi avlod tarbiyachilari, oilaning ma‘naviy muhiti barometri ekanini yaxshi tushunadi. Shu bois, qizlarni uzatishga shoshmadi, aksincha, yoshligidan yaxshi o‘qitishga harakat qildi. Qizlar katta bo‘lgani sari xorijiy tillarni o‘rganishga ishtiyoqi balandligi ko‘zga tashlanib boshladi. Ular tinimsiz o‘z ustida ishladi, mustaqil shug‘ullandi. Izlanish va mehnat besamar ketmadi. Qizlarning uchulasi ham bir vaqtda oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirdi. Uch farzandning kontrakt to‘lovini to‘lash uncha-muncha oilaga og‘irlik qiladi, albatta. Shunda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyanomasi ayni muddao bo‘ldi.

— Talabalikka qabul qilinganimiz oilamiz uchun bayramga aylanib ketdi. Qanchalik xursand bo‘lmaylik, kontrakt to‘lovi masalasi ota-onamiz uchun oson bo‘lmasin tushunib turardik. Shunday paytda imtiyoz asosida o‘qishga qabul qilinganimiz oilamiz uchun katta ko‘mak va e‘tibor bo‘ldi, — deydi Zahro Yusupova.

Ma‘naviy yangilanish yo‘lidamiz. Yangi uyg‘onish davri, avvalo, ta‘lim taraqqiyotiga, milliy ma‘naviyatning mustahkamligiga bog‘liq. “Xotin-qizlar — bu millat onalaridir”, degan edi ma‘rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat. Bugun turmushning ikir-chikirlaridan baland, orzulari tirikchilik tashvishlaridan ustun, bilimli, zakiy onalar yetishib kelyapti. Ular tarbiyalaydigan farzandlar ertaga yurt koriga yaraydi, mamlakat rivojiga hissa qo‘shadi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Bolalarni adabiyotga mehrli bo‘lishga o‘rgataman”

Mamlakatimizda nozik xilqat vakillari-ning ta‘lim olishi, jamiyat tarbiyachilari bo‘lib ulg‘ayishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bugun ko‘plab opa-singillarimiz hayotida o‘z ifodasini topyapti. Maqsuda Asorova Jizzax davlat peda-

oliy ma‘lumot olish orzusi ushalmay kelayotgan opa-singillarimiz uchun katta imkoniyat bo‘ldi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi ma‘lumotiga ko‘ra, 2022-yilda xotin-qizlar.uz platformasi orqali mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yillik mehnat stajiga ega, lekin oliy



ololmagan ayol-qizlar uchun katta yordam bo‘layotganini bir necha yurtdoshimiz taqdiri misolida kuzatish mumkin.

ma‘lumoti bo‘lmagan 29 ming 531 xotin-qizning arizasi qabul qilib, ularning 28



INSON QADRI

IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAM

muammolari bilan o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lamining yildan-yilga oshayotgani aholining ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlab, hayot tarziga engillik olib kirish, qulaylik yaratishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, ehtiyojmand, nogironligi bo‘lgan fuqarolar, yolg‘iz keksalarga ko‘mak berish, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilayotir. Shu maqsadda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



Binobarin, Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatlil ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinishi ham bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishda muhim omil bo‘ldi. Farmonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta‘lim olishiga ko‘maklashish bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlar bajarilishiga erishish, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquq va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish masalasiga doir ustuvor vazifalar belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. U o‘z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirish nazarda tutildi.

Mahalla darajasida professional ijtimoiy xizmatni tashkil etish, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarga individual yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, nogironlar uchun qulay va inkluziv muhit yaratish kabi vazifalar ham agentlik xodimlari zimmasiga yuklatildi.

— Bu tizim juda keng qamrovli bo‘lib, xodimlardan katta tajriba va malaka talab etiladi. Sababi ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar bilan bevosita ishlashning o‘ziga xos tomonlari bor. Faoliyatimizni boshlagandan keyin birlashtirilgan hududlar xatlovlar o‘tkazdik, ehtiyojmand va imkoniyati cheklangan, ko‘makka muhtoj fuqarolar ro‘yxatini tuzdik. Hozir ularning har biri bilan zarur ishlar olib borilib, yordam berilmoqda. Bu jarayon ularning jamiyatda munosib o‘rin topishda muhim, — deydi markaz xodimi Lola Ulaseva.

Bugungi kunda aholi orasida axborot texnologiyalari sohasiga qiziqish tobora ortmoqda. Barcha soha va jabhalarga zamonaviy axborot tizimi keng joriy etilib, ushbu yo‘nalishdagi mutaxassislarga mehnat bozorida ham talab ortyapti. Shu bois, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini axborot texnologiyalari sohasiga qiziqitirish va bu borada ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Navoiy viloyatida ham shu maqsadda “IT Park” viloyat filiali va Navoiy shahri “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi o‘rtasida memorandum imzolandi. Shu asosda 14-30 yoshdagi nogironligi bo‘lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qiziqitish va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, Navoiy shahrida yashovchi

50 nafar yosh kompyuter va dasturlash sohasi bo‘yicha o‘qitilmoqda. Olti oy davom etadigan o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan yoshlarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

Albatta, taraqqiyotning yangi bosqichida inson qadri, manfaati har narsadan ulug‘ sanaladi. Yaratilgan ana shunday imkoniyat va imtiyozlar tufayli nogironligi bo‘lgan fuqarolar ham ayni vaqtda hunarmandchilik, servis kabi yo‘nalishlarda o‘zini o‘zi band qilib, qo‘shimcha daromad topish barobarida, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga ham hissa qo‘shmoqda.

Ana shunday matonat sohiblaridan biri Karmana tumanidagi Ko‘hnaqo‘rg‘on mahallasida yashovchi Alisher Baratov yurish imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, intilishi tufayli zargarlik buyumlari va kalit yasash sirlarini o‘rganib, ayni vaqtda mustaqil ish boshladi. Hech fursat o‘tmay, u o‘z hunari ortidan oilasiga yaxshi daromad keltirmoqda.

— Sog‘lig‘im yaxshi emasligi uchun uch marotaba jarrohlik amaliyotini o‘tkazdim, ammo yurolmay qoldim. Boshida qiynaldim, uyda o‘tirdim, ammo bu sinovlarga mag‘lub bo‘lmadim, sabr qildim. Hozir hunarim bor, daromadim ham yaxshi. Yurtimizda deb kabi insonlarga o‘qish, hunar o‘rganish va ishlash uchun barcha imkoniyat va qulayliklar yaratib berilgan. Muhimi, e‘tibordan chetda emasligimni his qilamiz, — deydi hunarmand Alisher Baratov.

Karmanalik yana bir matonat sohibasi Tuyg‘unoy Muhiddinova ham bolalikdan nogironligi bo‘lsa-da, jamiyatda o‘z o‘rniga ega. U hozir xonadonida oilaviy maktabgacha ta‘lim muassasasi tashkil etib, 25 bolaga zamonaviy ta‘lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘ygan. Buning uchun muassasada barcha sharoit bor. Shu bilan birga, u mahallasidagi ikki nafar ishsiz xotin-qizning bandligini ham ta‘minladi.

Umriniso Amonova tug‘ilganida Qahramon mahalla fuqarolar yig‘inida istiqomat qiladi. Hudud aholisi uning xizmatidan mamnun. Qo‘li-qo‘liga tegmay ish yuritayotgan Umriniso bu faoliyatini boshlab xato qilganini ta‘kidlaydi. Imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, hayotga intilishi, umidi so‘nmagan. Kompyuter, surat chop etish, nusxa olish kabi xizmat ko‘rsatish ishlari orqali oilasiga yaxshigina daromad ham topmoqda. Uning kelgusi maqsadlari yuksak. Inson hamisha ko‘zlagan niyatlari sari intilishi zarur, deydi u shu haqida to‘xtalar ekan. Shuningdek, yurtimizda inson qadri ustuvor ekani va aholining barcha qatlamini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan e‘tibor, rag‘batdan mamnun.

Ayni vaqtda hududlarda tashkil etilgan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati bu kabi fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashi, tadbirkorlik, hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashishi, shuningdek, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolishining oldini olishi kabi xayriy maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

